

TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY TA'MINOTNING TARKIBIY QISMLARI

S.T.Seytmuratov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: dasturiy ta'minot, kreativ fikrlash, elektron darslik, samaradorlik, ilmiy yondashuv, motivatsiya, axborot texnologiyalari, interaktiv vositalar.

Ключевые слова: программное обеспечение, креативное мышление, электронный учебник, эффективность, научный подход, мотивация, информационные технологии, интерактивные инструменты.

Key words: software, creative thinking, electronic textbook, efficiency, scientific approach, motivation, information technology, interactive tools.

Kirish. Talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda dasturiy ta'minotini takomillashtirish orqali yangi fanlarni o'rganish va ijodiy tarzda tajriba o'ttirishga sharoit yaratadi. Bu jarayon talabalarining abstrakt fikrlash, algoritmik yondashuv, mantiqiy tahlil, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, shuningdek aqliy faoliyatining kengligi va chuqurligini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu fazilatlarining umumiyligi mantiqiy fikrlash uslubini yuzaga keltiradi va talabalarni ijodkorlikka intilib, kreativ salohiyatni oshirishga, kasbiy faoliyatning ilmiy tamoyillarini, atrof-muhit hamda o'zini ongli ravishda o'zlashtirish usullarini o'rganishga yordam beradi.

Bundan tashqari talabalarining kreativligini oshirish uchun dasturiy ta'minotni takomillashtirish maqsadlarini, oliy ta'limda fanlarni o'qitish natijalaridan biri sifatida belgilash, me'yoriy hujjatlar va ushbu kompetentlik tuzilishi asosida amalga oshirilishi lozim.

Bu borada O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ("O'zstandart") agentligining 2017-yil 10-noyabrda №05-896-sonli qarori "Elektron ta'lim" milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta'lim resurslariga yagona talablar"ga [1] standarti ishlab chiqilgan. Ushbu standart yangi elektron axborot-ta'lim resurslari mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish, elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish, elektron o'quv adabiyotlarni bosqichma-bosqich ta'lim amaliyotiga keng joriy etish, xalqaro tajribada keng qo'llanayotgan masofadan o'qitish usullarining samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim tizimida yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalar o'rgatuvchi (gipermatn va gipermurojaatga asoslangan, statistik va dinamik rasmlardan iborat), mashq qildiruvchi (xatolarni ko'rsatib beruvchi to'g'ri xulosaga olib keluvchi), nazorat qiluvchi (test orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi) tarkibiy qismlardan iborat [1].

Shuningdek, elektron qo'llanma shakllari va xususiyatlariga quyidagilar kiradi: o'quv materialini multimedia, ya'ni ma'lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi; turli o'quv adabiyotlari-darslik, lug'at, masalalar to'plami va amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari uchun tegishli barcha o'quv qo'llanmalarining bir joyda jamlangan holda ko'rinishi; o'rganuvchi va o'rgatuvchi o'rtasida o'zaro bevosita aloqa o'rnatilishi; o'quvchining o'quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha vazifalarning ma'lum qismini kompyuterli o'quv vositalari zimmasiga yuklatilishi; o'quvchi tomonidan qabul qilinadigan-maslahat, tushuntirish, ma'lumotni izlash bo'yicha savol-javob va

bilimni o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning tezkor uslubiga o'tish imkoniyati; kompyuter vizualizatsiyasi orqali o'rganilayotgan obyektning kompyuterdagi imitatsiya modellaridan foydalanishi; o'quv materialiga nisbatan yengil o'zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilishi; o'quv materialini yaratish arzonligi; o'quv faoliyatining oshirilishi; ta'limda masofadan o'qitish uslubini tashkil qilish imkoniyati; an'anaviy o'quv adabiyotlari bilan birgalikda kompleks foydalanish kabi xususiyatlari ta'kidlab ko'rsatilgan.

Muhokama. Elektron o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan tarkibiy usullari va format axborotning faylda taqdim etilish talablarini hisobga olgan holda biz talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mukammal dasturiy ta'minot ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislikning Davlat ta'lim standart; Davlat ta'lim standartiga mos ravishda yaratilgan namunaviy dastur; fanning maqsadi va vazifalarini, ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmunini, nazorat hamda kurs ishlarining mavzularini, masalalar, topshiriqlarini, yakuniy nazorat savollarini va fanning o'quv-metodik ta'minoti, mustaqil ishni tashkil etishga doir yo'riqnomani o'zida mujassamlashtirgan ishchi dastur; o'quv-uslubiy xarita va kalendar tematik rejalar; darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv materiallarining elektron versiyalari; mashg'ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar; nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarining metodik ta'minoti; fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha ballar taqsimoti, topshiriqlar turi, baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Hozirgi ta'lim texnologiyalari tezkor taraqqiy etib, talabalarining kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, ta'lim tizimida o'quvchilar va talabalar orasida ijodkorlikni oshirish dasturiy ta'minot vositalari yordamida muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Ushbu dasturlar insonning ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun ilg'or texnologiyalar, sun'iy intellekt, vizualizatsiya va interaktiv o'quv jarayonlarini birlashtiradi.

Olimlarimizning fikricha, kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Bunday dasturiy ta'minot kreativ fikrlashni shakllantiradi, bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil va fanlararo ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga o'z hissasini qo'shadi. O'zbekistonda bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari, o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun dasturiy ta'minotini bosqichma-bosqich yaratishning umumiy ko'rinishini shakllantirishda modellashtirish

metodikasidan foydalanadi, ya'ni obyektlar va hodisalarni ularning ramziy tasvirlari, o'xshashliklari orqali o'rganish amalga oshiriladi [3].



1-rasm. Kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotni yaratishga qaratilgan yondashuvlar va ta'lim mazmuniga ta'siri

Samaradorligini ta'minlovchi ilmiy yondashuv:

dasturiy ta'minot bo'lajak o'qituvchilarining "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiradi, bu ularga murakkab topshiriqlarni hamkorlikda yoki dastur yordamida mustaqil hal qilish imkoniyatini beradi. Vizual va interaktiv vositalar bilimni yaxshiroq anglash va xotirada uzoq muddat saqlanishiga yordam beradi;

kreativ dasturlar talabalarining o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga ko'maklashadi, ularni mustaqil tarzda yangi g'oyalarni ilgari surish va sinab ko'rishga undaydi. Bunday yondashuv o'z navbatida, talabalarda mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda bilim egallash jarayonini samaraliroq qiladi;

tajriba asosida o'rganish modeli dasturlarni ta'lim jarayonida qo'llash real hayotdagi muammolarni yechish uchun amaliy bilimlar berishni ta'minlaydi. Talabalar tajribalarni simulyatsiya yordamida bajarar ekan, o'z bilganlarini nazariy tushunchalar bilan bog'laydi;

motivatsiya va qiziqishni oshirish kreativ dasturlar talabalarni qiziqarli va izchil ishlashga undovchi "oqim holati" ga olib keladi. Talabalar o'z yutuqlarini dastur orqali tezda boshlashi va mukofotlanishi natijasida jarayon davomida motivatsiya va qoniqish hissini saqlab qoladi.

O'qitish tizimiga qo'shgan hisssasi:

interaktivlikni kuchaytirish kreativ dasturiy ta'minot turli intellektual ko'nikmalarga ega o'quvchilarga moslashtirilishi mumkin. Masalan, vizual ta'lim uchun animatsiyalar, musiqiy o'rganish uchun tovushlarni qo'llash o'quv jarayonini diversifikatsiya qiladi;

dasturiy ta'minotlar talabalarining mukammal darajadagi aqliy malakalarini, shuningdek, tahlil qilish, baholash va kreativ fikrlarni shakllantirishni rag'batlantiradi. Amaliy mashg'ulotlar yordamida nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga imkon beradi:

zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi, shuningdek, simulyatsiya va virtual muhitlardan foydalanish yordamida, talabalarga qiyin masalalarni amaliy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu dasturlar laboratoriya tajribalari uchun o'ziga xos muqobil bo'lib, qimmat uskunalarsiz ham sifatli o'qitishni ta'minlaydi;

moslashuvchan ta'lim tizimi kreativ dasturlar talabalar ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yadi. Bu o'quv tizimining o'zgaruvchanlikka javob bera olish qobiliyatini oshiradi.

Ilmiy yondashuvlardan kelib chiqadigan afzalliklar:

simulyatsiya va interaktiv vositalar orqali amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish talabalar nazariy bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib, amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi;

dasturiy-ta'minot yordamida talabalarining individual yondashuvlari rivojlanadi hamda ular yangi g'oyalarni amaliyotda tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ijodiy va kreativ fikrlashga ko'p vaqtlarini ajratishni ta'minlaydi;

hozirgi ta'lim standartlariga moslashish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol vositalarni o'quv jarayoniga joriy etish xalqaro ta'lim qoidalariga muvofiq rivojlanishga yordam beradi"[2].

Kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot ta'lim tizimida o'qituvchilar va talabalar uchun samaradorlikni oshiradi. Bu ayniqsa, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish va motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida kreativ kompetentlikni oshirish ta'lim jarayonining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini zamonaviy talabalar asosida tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat talabalarining ijodiy salohiyatini oshiradi, balki ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga olib chiqadi va ta'lim tizimini innovatsion rivojlanish sari yo'naltiradi.

Kreativ kompetentlikning ta'lim jarayoniga ta'siri:

Ijodiy tafakkur qobiliyatlarini shakllantirish: kreativ kompetentlikni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilar uchun an'anaviy bo'lmagan fikrlash, muammolarga yangi qarashlar bilan yondashish va yangi g'oyalarni taklif etish imkonini yaratadi. Bu esa ularning kreativ fikrlashlarini shakllantirishga yordam beradi;

mustaqil ta'lim va mas'uliyatni shakllantirish: kreativ kompetentlikni shakllantirish natijasida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tarzda egallashni o'rganadilar, bu esa o'zlashtirish samaradorligini yaxshilaydi. Talabalar faqat o'qituvchining ko'rsatmalariga emas, balki o'z izlanishlariga ham tayanishni o'rganadilar;

texnologiyalarni samarali qo'llash: yetuk axborot texnologiyalar interaktiv vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada maroqli hamda oson tushunarli qiladi. Simulyatsiyalar, animatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalar murakkab mavzularni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalari: talabalar turli fanlararo masalalarni kreativ yondashuv yordamida hal qilish orqali o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi;

xalqaro darajadagi tayyorgarlik: kreativ fikrlash global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar talabalariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur. Bu, o'z navbatida, talabalarining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Kreativlikni rivojlantirishdagi dasturiy ta'minotning ta'lim sifati uchun afzalliklari:

innovatsion yondashuvlar: kreativlikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va texnologik usullarni tatbiq qilish osonlashadi.

yangi pedagogik model: talaba markazli ta'lim modeli keng tarqaladi, bunda o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lib maydonga chiqadi.

o'zlashtirish samaradorligi: o'quv jarayonida yangi texnologiyalar va kreativ yondashuvlar qo'llanganda

bilimlarni tushunish va eslab qolish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi.

Natijalar. Kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotlar foydalanuvchilarning tasavvurini kengaytirish yangi narsalarni yaratishga undash va ijodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, darslarida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi dasturiy vositalarning o'ziga xos xususiyatlari hozirgi ta'lim tizimining muhim qismiga aylanmoqda. Bunday dasturlar talabalar tafakkurni rivojlantirishda, ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Ўзстандарт агентлигининг 2017-йил 10-ноябрдаги №05-896-сонли қарори. “Электрон таълим” миллий тизимига киритиладиган электрон методик комплекслар ва бошқа таълим ресурсларига ягона талаблар. О'zDSt 36.2030:2017.

2. Seytmuratov S.T. Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik zaruriyat. // Ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent: 2023, №9, 257-265-b.

3. Seytmuratov S.T. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. // «Raqamli iqtisodiyot» ilmiy-elektron jurnali, – Toshkent: TDIU, 2024.

REZYUME. Maqolada talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotning tarkibiy qismlari, ularning hozirgi ta'lim tizimida tutgan o'rni va ahamiyati bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье будут рассмотрены программные компоненты развития креативной компетентности учащихся, их роль и значение в современной системе образования.

SUMMARY. The article riches the components of the software for the development of creative competency of students, their role and significance in the current educational system.

O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

A.Sultanova – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma va malaka, metodik tavsiyalar, grammatik kategoriya, metodlar.

Ключевые слова: знания, умения и навыки, методические рекомендации, грамматическая категория, методы.

Key words: knowledge, skills, methodological recommendations, grammatical category, methods.

Kirish. O'quvchilarni qo'shimchalar imlosiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda birinchi navbatda unli, undosh, jarangli, jarangsiz kabi eng zarur terminlar bilan tanishtirish, ularga tayangan holda imloviy qoidalar ustida ishlash lozim. Dastlab morfologiyaga doir ayrim mavzular o'rganilmog'i, so'ngra imloviy qoidalariga ko'ra guruhlash mumkin bo'lgan qo'shimchalar yuzasidan umumlashtiruvchi mashqlar bajarilmog'i maqsadga muvofiqdir. Didaktik mashq turlari doirasida o'yinli usullardan, «aqliy hujum» usulidan, muammoli ta'lim usullaridan, mustaqil fikrlash asosida o'tkaziladigan nutqiy mashqlardan, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish ma'qul.

Adabiyotlar tahlil va metodlar. E.N.Solovova mashqlarni joylashtirish izchilligi haqida to'xtalib, avvalgi mashq keyingi mashqni bajarish uchun tayanch vazifasini o'tashi kerakligiga alohida urg'u beradi [2:59]. Bunday izchillikni kelishiklar yuzasidan tuziladigan mashq va topshiriqlarga nisbatan ham joriy etish lozim. Muayyan ketma-ketlikda hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar: ona tilidagi kelishiklarning nomlarini eslay olish, qo'shimchalarni sanab bera olish va imlosini izohlay bilish; kelishik qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qilish, farqlab qo'llay bilish, ayniqsa, **-ning** va **-ni** qo'shimchalarini o'z o'rnida ishlatish, yozma nutqda imloviy xatolarsiz yoza olish.

Natijalar. Bir grammatik kategoriyaga (masalan, kelishiklar) mansub grammatik vositalar o'rganib bo'lingach, ular ustidagi ishlar shu bilan to'xtab qolmaydi. Endi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda qo'shimchalarni, shuningdek, yordamchi so'zlarni bir-biridan farqlash, o'z o'rnida qo'llash bilan bog'liq ish turlaridan zarurlari bajariladi. Chunonchi:

1) berilgan qo'shimchalarni mansubligiga ko'ra guruhlariga ajratish;

2) shakldosh qo'shimchalarning qaysi guruhga mansubligini aytish;

3) qo'shimchalarni turlarga (so'z yasovchi qo'shimcha, shakl hosil qiluvchi qo'shimcha) ajratish;

4) grammatik ma'nosi bir xil grammatik vositalarni aytish;

5) qo'shimchalar orasidan qo'llanishi imlo qoidalar bilan bog'liq qo'shimchalarni topish va tushuntirish;

6) bekatlar bo'yicha sayohatda qatnashish;

7) «Grammatik vositalar bilimdoni» bellashuvida ishtirok etish;

8) ma'nodosh grammatik vositalarni (*borsa kerak – borar; kelajakka – kelajak sari* kabi) aniqlash;

9) ma'nodosh grammatik vositalarning (*borsa kerak – borar; kelajakka – kelajak sari* kabi) so'zlashuv yoki kitobiy uslubga mansubligini izohlash;

10) testlar bajarish.

Testlardan mavzuning qay darajada o'zlashganligini nazorat qilish uchun ham foydalaniladi. Masalan:

Test. Qaysi qatorda faqat shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan?

1) -chi, -sh (-ish), -gan, -li;

2) -cha, -chak, -tir, -lar;

3) -iy (-viy), -gi (-ki, -qi), -siz, -zor.

Test. O'rttirma nisbat qo'shimchalari qaysi qatorda berilgan?

1) -l (-il), -n (-in);

2) -sh (-ish);

3) -tir, -dir, -t, -kaz.

Nazorat sifatida savol va topshiriqlarga ham murojaat etiladi: